

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



B MARKETING E INNOVATSIYA D I BIZNES S RAQAMLI MARKETING V D ELEKTRON TIJORAT

№2-SON

2025-YIL, FEVRAL

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



OPEN  ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Elektron nashr 609 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 28-fevralda ruxsat etildi

HAMKORLARIMIZ:

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
2. “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi



MUNDARIJA

AHOLI O'RTASIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING AHAMIYATI	7
Nazarova Ra'no Rustamovna	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY	17
Nazarova Rano Rustamovna, Jamolov Bejan Xurshidovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	26
Karrieva Yakutjan Karimovna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI HUDUDIY STATISTIK GURUHLASH	33
Akbarova Barno Shuxratovna	
KORXONALARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI: RAQAMLI MARKETING VOSITALARINI INTEGRATSIYA QILISH VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH USULLARI ..	40
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
JIZZAX VILOYATI FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATINING STATISTIK TADQIQI	47
Ayubjonov Abbas Xosilovich, Ratayev Faxriddin Irismatovich	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	58
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Najmiddinov Sherzod Qiyomiddin o'g'li	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA YO'NALTIRILGAN OILAVIY TADBIRKORLIKDA INSON IMKONIYATLARIGA YONDASHUVI	65
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARINING O'RNI VA IQTISODIY FAOLIYATINING STATISTIK TAHLILI	75
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
NEYROMARKETINGNING ZAMONAVIY REKLAMA STRATEGIYALARIGA TA'SIRI	86
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ HO'JALIK MAHSULOTALARI ISHLAB CHIQRISHNING AHAMIYATI	97
Masharipova Fazilat Axmedovna	
THE IMPORTANCE OF BENCHMARKING IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF MANUFACTURING ENTERPRISES.....	106
Musayeva Shoirazimovna	
KORXONALARNING FAOLIYATIDA DAROMAD VA XARAJAT HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Muxibova Guli Yarkinovna, Turabekova Ominaxon Ulug'bek qizi	
TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	119
Sapayev Axmed Durdibaevich	
"UNIVERSITET 4.0" MODEL: RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA UNIVERSITETLARNING RAQAMLI MARKETING YONDASHUVI	127
Xidoyatov Murod Batirovich	
TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH YONDASHUVLARI.....	139
Yusupova Mexribon Uktamovna	
MINTAQADA TRANSPORT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TADQIQI.....	148
Sapayev Axmed Durdibayevich	
O'ZBEKISTONDA YUK VA YO'LOVCHI TASHISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	154
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	

BANK XIZMATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA MOLIYAVIY TEKNOLOGIYALARINING ROLI.....	162
Azimova Nasiba Shuxratovna	
KORXONALAR FAOLIYATIDA MEHNAT INTIZOMINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI.....	170
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDA MAHALLIY BYUDJETLAR BARQARORLIGINI TA’MINLASH YO‘LLARI.....	176
Davlatov Muradbek Saparboyevich	
SIX MAIN STAGES OF THE SUPPLY PROCESS.....	183
Ergashev Jahongir Bakhodirovich	
O‘ZBEKISTONDAGI QURILISH MATERIALLARI SANOATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	195
Igamova Shaxinya Zikrilloevna	
XALQARO SAYYOHLIK BOZORIDA IJTIMOIIY TARMOQLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARB TENDENSIYALARI.....	202
Kasimova Zilola G‘ulomiddinovna	
KORXONA IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK BOSHQARUV TIZIMINI JORIY ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	210
Qodirov Abduvoxid Abdumannof o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA TUROPERATORLAR FAOLIYATIDA MARKETINGNI TAKOMILLASHTIRISH	220
Qutlimurotov Fayzullo Sadulayevich	
INNOVATION MENEJMENT TAMOIYILLARI ASOSIDA KORXONALARNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	229
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
THE IMPORTANCE OF OPERATING EXPENSES IN MANAGEMENT COSTS	237
Turdieva Gulaida Omirbayevna, Maulenberganova Khusnida Khursand qizi	
ILM-FAN SOHASIDA BOZOR MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TIZIMI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI.....	247
Tursunov Bekmuxammad Omonovich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING KOMPANIYA KAPITAL QIYMATIGA TA’SIRI	255
Urinov Bobur Nasilloevich	
O‘ZBEKISTONDA MEHMONXONA XO‘JALIGI MILLIY TASNIFLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	263
Xamitov Mubin Xabibjonovich	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARINING KO‘ZI OJIZLARNING INTELLEKTUAL FAOLIYATIDAGI O‘RNI	276
Mannopova Manzura Jamil qizi	
HUDUDLARDA ENERGIYA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	284
Safarov Akbar Shokirovich	
TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIGA SINERGIYANING TA’SIRI VA UNING ELEMENTLARI	291
Tojiyev Sa’dulla Muhitdinovich	
УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИЯМИ В СФЕРЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ НА РЕГИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ	302
Абдурахманов Зафар Мамурович	
ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	311
Карабаева Гулнора Шарафитдиновна,	

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В КИТАЕ .320	
Медынская Ирина Вильевна	
MODA INDUSTRIYASIDA NEYROMARKETINGDAN FOYDALANISH339	
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
KORXONALARNING EKSPORT SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH346	
Jiyamuradov Rustam Nuriddinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA BIZNES MODELLARINING SHAKLLANISHI351	
Saatova Lolakhon Ergashevna	
MODA INDUSTRIYASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI359	
Ahmedova Rayhona Jasurbek qizi	
OLIY TA'LIM MUASSALARI BOSHQARUVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH367	
Berdiyev Temurbek Maxmudullo o'g'li	
MINTAQALARDA KLASSTERLARNING TASHKILIY IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH376	
Beknazarova Manzura Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARIDA BRENDNI MILLIY AN'ANALARGA MOS RAVISHDA SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI383	
Babaxodjayev Giyosiddin Nasirovich	
THE ROLE OF PROGRAMMATIC ADVERTISING IN DATA-DRIVEN MARKETING: OPTIMIZING TARGETED ADVERTISING STRATEGIES IN THE TOURISM SECTOR392	
Sodikov Mirziyo Odiljon ogli	
UMUMIY FOYDALANISHDAGI AVTOMOBIL YO'LLARINI QURISH, QAYTA QURISH ISHLARIGA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MABLAG'LARINI JALB QILISH400	
Pardayev Fayzulla G'affarovich	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА407	
Гафурова Дилшода Рамазановна	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARI: IJTIMOY MEDIA MARKETINGDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI414	
Xamidov Obidjon Xafizovich	
Baxtiyorova Nigina Ulug'bek qizi	
KOMPANIYALAR KAPITAL AKTIVLARINI BAHOLASHNING NAZARIY JIHATLARI423	
Bunyod Usmonov Aktam o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ КЛАСТЕРОВ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ОБЗОР427	
Садриддинова Нигора Хусниддиновна	
ИГРЫ И ИГРОВЫЕ ЗАНЯТИЯ ПО ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ433	
Фозилова Фирангиза Комиловна	
BILIMLAR IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA TA'LIM SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI440	
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI448	
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI458	
Sodiqova Dilafruz Zohid qizi	

O'ZBEKISTONDA YASHIL MOLİYANI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA STRATEGIK YO'NALISHLARNI ANIQLASH	467
Masharipova Shahlo Adambaevna	
MOBIL ALOQA TARMOQLARINING DUNYO IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI	478
Dilafroz Aripova	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASHNING TASHKILY MOLİYAVIY MEXANIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.	489
Naziraliyev Diyorbek Imomali o'g'li	
SUG'URTA KOMPANIYALAR MOLİYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR VA ULARNI BAHOLASH USULLARI	500
Haqberdiyev Bekzod Uktamovich	
AGROKLASTER TIZIMIDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'INING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI VA ULARNI QO'LLASH STRATEGIYALARI.....	509
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	517
Raximov Anvar Norimovich	
MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH: XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI.....	527
Ergashev Otamurod Tashtemirovich	
MUHANDISLIK TA'LIM SOHALARI TALABALARIDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODEL.	536
Butayev Tuxtasin	
O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI ASOSIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	543
Abdusattorov Sarvar Shokirovich	
АНАЛИЗ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ СЕТИ МЕТОДАМИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ.....	552
Алланязова Айсапа Муратовна	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	564
Yadgarova Nigora Rixsulla qizi	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	572
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA IFLOSLANISHINI BAHOLASH VA BARQARORLIQNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	584
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li	
MOLIYAVIY XAVFLAR TASNIFINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	591
Jabborov Azamat	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR INNOVATSION BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH TAJRIBALARI.....	596
Baymuratova Madina Tursunboy qizi	
IQTISODIYOTNING TARKIBIY O'ZGARISHLARINI KICHIK BIZNES TARAQQIYOTINI TA'MINLASHDAGI ROLINI BAHOLASH MASALALARI	602
Elov Olimdjon Komilovich	

ILM-FAN SOHASIDA BOZOR MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TIZIMI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

Tursunov Bekmuxammad Omonovich

Toshkent gumanitar fanlar universiteti

ilmiy ishlar va innovatsiyalar

bo'yicha prorektori, PhD, dotsent

E-mail: omonovich-0387@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada ilm-fan sohasini rivojlantirishda bozor munosabatlarini tashkil etishning o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Ilm-fan sohasida bozor munosabatlarini tashkiliy mexanizmini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan kombinatsion jarayonlarni optimallashtirish hisobiga ilm-fan sohasining strategik rivojlanish imkoniyatlari asoslangan. Ilm-fan sohasida bozor munosabatlarini tashkiliy asosini shakllantirish va uni takomillashtirishda biznes subyektlarining rolini kengaytirishning uslubiy asosi shakllantirilgan. Ilm-fan sohasida bozor munosabatlarini tashkiliy tizimini muvofiqlashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy-innovatsion faoliyat, innovatsion infratuzilma, ilmiy tadqiqot ishlanmalari, startap loyiha, intellektual mulk, innovatsion tovar, innovatsion tadbirkorlik, to'rtinchi sanoat inqilobi, raqamli texnologiya.

Аннотация

В статье исследуется роль организации рыночных отношений в развитии сферы науки и ее специфические особенности. Стратегические возможности развития сферы науки базируются на оптимизации комбинаторных процессов, направленных на координацию организационного механизма рыночных отношений в сфере науки. Сформирована методологическая основа расширения роли субъектов предпринимательства в формировании и совершенствовании организационной основы рыночных отношений в сфере науки. Разработаны научные предложения и практические рекомендации по координации организационной системы рыночных отношений в сфере науки.

Ключевые слова: научно-инновационная деятельность, инновационная инфраструктура, научные исследования и разработки, стартап-проект, интеллектуальная собственность, инновационные товары, инновационное предпринимательство, четвертая промышленная революция, цифровые технологии.

Abstract

The article studies the role of the organization of market relations in the development of the field of science and its specific features. The strategic development opportunities of the field of science are based on the optimization of combinatorial processes aimed at coordinating the organizational mechanism of market relations in the field of science. The methodological basis for expanding the role of business entities in the formation and improvement of the organizational basis of market relations in the field of science is formed. Scientific proposals and practical

recommendations are developed for coordinating the organizational system of market relations in the field of science.

Keywords: scientific and innovative activity, innovative infrastructure, scientific research and development, startup project, intellectual property, innovative products, innovative entrepreneurship, fourth industrial revolution, digital technologies.

KIRISH

Inson taraqqiyotining barcha bosqichlarida ilm-fan sohasini rivojlantirish va uning tashkiliy asoslarini muvofiqlashtirish jarayonlari fundamental asosga ega bo'lgan muammo sifatida e'tirof etilgan. Bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlarini takomillashtirish sharoitida ilm-fan mahsuli va uning natijadorligi qanday baholanadi? Ilm-fan mahsulining bozor bahosini qanday aniqlash mumkin? degan qator savollar ilm-fan namoyondalari va fan sohasining yetakchi mutaxassislari tomonidan ko'plab bahs va munozaralarga sabab bo'layotganligi ushbu fikrimizni asoslashga xizmat qiladi.

Mazkur muammolarni yechishda samaradorlikni aniqlashning klassik modelidan foydalangan holda aniqlik kiritish imkoniyati mavjud. Ammo, real vaqt sharoitida fan sohasidagi yutuqlarning ma'lum natijalarini baholashda mazkur usuldan foydalanish faqat nisbiy xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

Ma'lum mamlakatlarda ilm-fan mahsulining bozor bahosini shakllantirishga nisbatan tegishli yondashuvlarning mavjud emasligi fan sohasida yutuqlarni amaliyotga joriy etish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga, jamiyat oldida tobora murakkablashib borayotgan muammolarni mavjud imkoniyatlar doirasida hal qilishda tegishli natijadorlikka erishish imkoniyatini pasaytiradi.

Bu borada mamlakatimiz oldidagi ustuvor maqsad va vazifalarning kompleks asosi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabr PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"¹ Farmoni bilan tasdiqlangan "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da quyidagicha qayd etilgan:

"Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va uning yangi texnologik rivojlanishiga o'tish jarayoni dunyo tovar va moliya bozorlarida, raqamli texnologiyalarni joriy etish va aholining ijtimoiy-iqtisodiy, o'sib borayotgan muammolarini hal qilish usullarida raqobatning tobora kuchayishiga olib kelmoqda. Ushbu masalalarning asosiy yechimi ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rin olish, to'rtinchi sanoat inqilobi davrida xalqaro raqobatbardoshlikka erishish, to'plangan institutsional muammolarning yangi yechimlarini izlab topish, shuningdek, globallasuv tufayli yuzaga kelayotgan bahsli masalalarni hal qilishdan iborat bo'lishi lozim" [1].

Mazkur maqsad va vazifalarning kompleks asosi mamlakatimizda ilm-fan sohasida bozor munosabatlarini tashkil etish tizimi va uni amalga oshirish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabr PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni <http://www.lex.uz/ru/docs/-5073447>

mexanizmiga nisbatan tegishli yondashuvlarni ishlab chiqish va uni shakllantirish jarayonidagi mavjud imkoniyatlarni tegishli asosga keltirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ilm-fan sohasida bozor munosabatlarini tashkil etish tizimi va uni amalga oshirish mexanizmi doirasidagi keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar qator xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarning nazariy-uslubiy asoslariga doir yondashuvlar M. Matt, D. H. Hsularning ilmiy izlanishlarida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot ishida tijoratlashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni guruhlash amaliyotiga alohida e'tibor qaratilgan. Shu boisdan olimlar tomonidan startap loyihalarini shakllantirish va ularni tijoratlashtirish imkoniyatini beradigan ilmiy maqolalarni yaratish orqali iste'molchilar auditoriyasini kengaytirish taklif etiladi [2].

K. Brasio, M. Sharuskiylarning mazkur sohaga doir ilmiy tadqiqotlarida innovatsiyalarni xalqaro darajada tijoratlashtirish uchun nufuzli ilmiy ma'lumotlar bazalarida ushbu tadqiqotlarning amaliy natijalari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etish maqsadga muvofiqligi ta'kidlanadi [3].

I. V. Popovanning mamlakatda intellektual mulk huquqi va uni tashkil etish tizimi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida intellektual mulk natijalarini tijoratlashtirishda manfaatdor tomonlarning xalqaro konvensiya va bitimlarga rioya etishi, mamlakat hududida sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi mualliflik va turdosh huquqlarni shakllantirish jarayonini soddalashtirish lozimligi qayd etilgan [4].

G. G. Gubaydullina ilmiy tadqiqotlarida ilm-fan sohasida bozor mexanizmini joriy etish, uning tarkibiy qismlarini namoyon qilish xususiyatlariga e'tibor bergan holda ilmiy bozorni shakllantirish orqali mamlakat ilm-fan sohasining rivojini strategik boshqarish trayektoriyasini aniqlash borasida tegishli xulosalar bergan [5].

V. F. Baynev mamlakatda ilm-fan sohasida o'zaro tovar ayirboshlash jarayoni bilan bog'liq samarali yo'nalishni shakllantirishda fan mahsuli hisoblangan innovatsion tovarlarni yaratish imkoniyatlarini baholash zarurligini qayd etadi [6].

O. A. Sukanova, E. A. Zaxarovalarning tegishli tadqiqotlarida ilmiy-tadqiqot ishlanmalarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib, ularning bozor narxlarini shakllantirishda iqtisodiyotning tarmoq va sohalar o'rtasidagi kombinatsion tizim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor berish lozimligi ta'kidlanadi [7].

X. X. Daliev tadqiqotlarida innovatsion faoliyat infratuzilmasini shakllantirish orqali ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalariga joriy etish ko'lamini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan [8].

Z. D. Adilova, S. U. Ismailovalarning ilmiy tadqiqotlarida xorijiy mamlakatlarda fan va ta'lim sohasidagi natijalarni tijoratlashtirishning moliyaviy va tashkiliy tizimiga oid tajribalar o'rganilib, mazkur tajribalarga muvofiq intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni taqsimlash orqali ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan [9].

G. Tangrikulov ilm-fan sohasida bozor imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarida ilmiy-innovatsion faoliyatni soliqlar vositasida

ragʻbatlantirish jarayoniga ustuvorlik berish, milliy soliq qonunchiligida innovatsion faoliyatni ragʻbatlantiruvchi soliq mexanizmlarini joriy etish orqali ilmiy-innovatsion jarayonlarni jadallashtirish zarurligini taʼkidlaydi [10].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda ilm-fan sohasida bozor munosabatlarini tashkil etish tizimi va uni amalga oshirishda ilmiy-tadqiqot sohasidagi xizmatlarga talab va taklifning maʼlum xususiyatlari oʻrganilgan. Ammo fan-texnika sohasida mavjud talabni oʻrganish orqali tegishli taklifni shakllantirish jarayonlariga keng koʻlamli eʼtibor qaratilmaganligi ushbu masalaning yanada chuqurroq tadqiq etilishi lozimligini koʻrsatadi.

METODOLOGIYA

Ilm-fan sohasida bozor munosabatlarini tashkil etish tizimi va uni amalga oshirish jarayoniga doir mazkur tadqiqot ishida ilmiy bilishning mantiqiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, statistik tahlil, tizimli tahlil kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda ilm-fan sohasini rivojlantirish, soha rivojini kompleks majmuasini shakllantirishda mavjud omillarning integratsiyasini taʼminlash, fan sohasining yetakchi mutaxassislari turmush farovonligini oshirish borasida koʻplab vazifalar amalga oshirib kelinmoqda. Ayniqsa, bu borada ilm-fan sohasini rivojlantirishning tashkiliy tizimini takomillashtirish bilan birga xalqaro hamkorlik aloqalariga ham keng koʻlamli urgʻu berilayotganligi mavjud imkoniyatlardan foydalanishning asosiy ustuvorligi hisoblanishini alohida qayd etish oʻrinli. Shuningdek, soha rivoji natijaviyligi ichki imkoniyatlar doirasida faoliyat harakatlar uygʻunligini taqozo etayotganligi sababli, mazkur natijaviylik ilmiy faoliyatni rivojlantirish omillarining oʻzaro konsentratsiyasini talab etishiga eʼtibor qaratish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda mavjud muammolardan biri oliy taʼlim muassasalarida taʼlim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bogʻliqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini amaliyotga joriy etish jarayonida kuzatilayotgan boʻlib, mazkur jarayon ilm-fan va amaliyot uygʻunligini taʼminlashda maʼlum boʻshliqni yuzaga keltirayotganligini guvohi boʻlish mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasida ilmiy-innovatsion faoliyatning tashkiliy-huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirishga yoʻnaltirilgan islohotlar natijasida korxona va tashkilotlarning ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga nisbatan innovatsion xarajatlari hajmi keskin ortdi. Xususan, 2020-yilda Oʻzbekiston Respublikasida korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsiyalarga umumiy qiymati 6 830 trln. soʻm mablagʻ ajratilgan boʻlsa, 2021-yilda ushbu koʻrsatkichning qiymati qariyb 2,5 barobarga ortib, 17 680,8 trln. soʻmni tashkil etgan. 2022-yilda korxona va tashkilotlar tomonidan 19 130,6 trln. soʻmga teng boʻlgan mablagʻ innovatsiyalarga sarf etilgan. 2023-yilda sarf etilgan mablagʻlarning umumiy hajmi 2022-yilga nisbatan 44,5 foizga pasayib, 10 616,5 trln. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2024-yilda umumiy qiymati 9 foizga oʻsib, 11 573,8 trln. soʻmga yetgan (1-jadval).

ishlanmalarining hajmi qariyb 60 foizdan yuqori o'sish ko'rsatkichini qayd etgan. 2020-yilda bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari soni 992 029 donani tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 1 069 677 donaga yetgan. 2022-yilda bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari hajmi 67 foizga ortib, umumiy soni 1 788 301 donani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari 2022-yilga nisbatan 21 foizga pasayib, umumiy soni 1 407 097 donaga yetgan. 2024-yilda bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari soni 1 601 023 dona bo'lib, 2023-yilga nisbatan qariyb 14 foizga ortgan.

1-jadval.

2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan ilm-fan va innovatsiyalarning natijaviy ko'rsatkichlari[11]

Ko'rsatkichlar	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y
Korxona va tashkilotlarning innovatsion xarajatlari (mlrd.so'm)	6830	17680,8	19130,6	10616,5	11573,8
Bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar soni	992029	1069677	1788301	1407097	1601023
Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tashkilotlar soni	254	254	262	289	372
Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan band bo'lgan xodimlar soni (ming kishi)	30,3	34,6	36,7	36,9	37,1
Joriy etilgan innovatsiyalar soni	4290	4148	3792	8294	5131

2020-2024-yillar oralig'ida bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik


Tahlil natijalari 2020-2024-yillarda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tashkilotlar sonida keskin o'sish sur'atining mavjud emasligini ko'rsatadi. Bu borada eng yuqori ko'rsatkich 2024-yilda 372 ta tashkilotdan iborat bo'lib, 2020-2021-yillarda mos ravishda 254 ta, 2022-yilda 262 ta, 2023-yilda esa 289 tani tashkil etgan.

Mazkur yillarda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan band bo'lgan xodimlar sonida ham keskin o'sish sur'ati mavjud emas. Bu ko'rsatkich 2020-yilda 30,3 ming, 2024-yilda esa 37,1 ming kishini tashkil etgan. Shuningdek, ushbu davr oralig'ida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan band bo'lgan xodimlarning o'rtacha soni 6 ming kishiga ortgan.

Amaliyotga joriy etilgan innovatsiyalar sonida eng past natijadorlik 2022-yilda qayd etilgan bo'lib, joriy etilgan innovatsiyalar soni 3 792 tani tashkil etgan, eng yuqori natija esa 2023-yilda 8 294 donani tashkil etgan.

2020-2024-yillarda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan band bo'lgan xodimlar orasida oliy ma'lumotga ega bo'lganlarning o'rtacha nisbiy o'zgarishi qariyb 5 foizni tashkil etadi (1-rasm).

O‘zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda amalga oshirilgan ilm-fan va innovatsiyalarning natijaviy ko‘rsatkichlari bo‘yicha tegishli tahlil natijalari ilm-fan sohasining rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rtasida trend bog‘liqlik mavjud emasligini ko‘rsatadi. Mazkur jarayonning trend bog‘liqlikka ega emasligining asosiy sabablaridan biri – sohada bozor munosabatlarini tashkil etish jarayonlariga yetarlicha e‘tibor berilmayotganligi bilan izohlash mumkin.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan band bo‘lgan xodimlar sonida oliy ma‘lumotga ega bo‘lganlar ulushi (foizda)[11]

Fikrimizcha, sohada bozor munosabatlarini tashkil etish tizimi va uni amalga oshirish mexanizmi bilan bog‘liq quyidagi kamchiliklar mavjud:

- Ilm-fan va innovatsiyalar sohasini moliyalashtirish jarayonlarida innovatsion texnologiya yoki tovarlarni tijoratlashtirishda mavjud bozor imkoniyatlari o‘rganilmayotganligi.
- Korxonalar muayyan foyda normasiga bog‘lanib qolganligi sababli, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini amalga oshirish va ularning natijadorligini ta‘minlash bilan bog‘liq risk munosabatlariga kirishmasligi.
- Milliy va mintaqaviy darajada innovatsion texnologiyalarni tijoratlashtirish tizimi shakllantirilmaganligi hisobiga biznes va innovatsion tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida integratsion munosabatlarni amalga oshirish jarayonlarining murakkabligi.
- Innovatsion tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini oshirishga yo‘naltirilgan bozor imkoniyatlarini baholashda segmentlash va pozitsiyalash jarayonlari yo‘lga qo‘yilmaganligi va boshqalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan sohasida bozor munosabatlarini tashkil etish tizimi va uni amalga oshirish mexanizmini shakllantirish zaruriyati korxonalarda foydani maksimallashtirishga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarning maqsadli kombinatsiyasini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu bois korxona va tashkilotlarning ilm-

fan markazlari hamda oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik jarayonlarida sezilarli darajada manfaatdorligini ta'minlashda biznes va ilm-fan o'rtasidagi hamkorlik jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan bozor determinantlarining turli guruhlarini nisbiy ahamiyatini o'rganish talab etiladi.

Ilm-fan sohasida bozor munosabatlarini tashkil etish tizimi va uni amalga oshirish mexanizmiga doir empirik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fan va texnika sohasidagi davlat boshqaruv vazifasini strategik tartibga solish vazifasiga o'zgartirish iqtisodiyotning tarmoq va sohalari doirasida innovatsion texnologiyalar almashinuvining gorizont va vertikal tizimini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ilmiy-texnik sohada uzoq muddatli hamkorlik jarayonlarini kengaytirish va yangi hamkorlarning paydo bo'lishiga yo'naltirilgan shartnomaviy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, ilmiy tadqiqot natijalarini korxona va tashkilotlarning amaliy faoliyatiga yo'naltirishda bozor mexanizmi samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq quyidagi vazifalarga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

- Ilmiy markazlar va yirik korxonalar o'rtasida texnologiyalar transferini ta'minlash maqsadida birgalikda ishlab chiqish va ishlab chiqarish obyektlarini qurish hisobiga ilm-fan va biznes o'rtasidagi samaraliroq texnologik hamkorlikni yo'lga qo'yish.
- Hududiy darajadagi innovatsion faol korxonalarga mahalliy ishlanmalar va texnologiyalar asosida tegishli ta'minotni tashkil etishga imkon beradigan hududlar o'rtasida texnologiyalar almashinuvi platformasini yaratish.
- Milliy innovatsion tizim va ilmiy-texnikaviy mahsulotlar bozorini rivojlantirish doirasida tadbirkorlik faoliyatida samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni hududiy darajada namoyon qilish hisobiga innovatsiyalarga ixtisoslashgan hududlarni shakllantirish.
- Ochiq bozor sharoitida korxona va tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish strategiyasini ishlab chiqish va faoliyat samaradorligini oshirish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadigan yuqori texnologik innovatsiyalarni prognozlash, maqsadli iste'mol segmentini aniqlash hisobiga ilmiy tadqiqot ishlariga narx belgilashdagi mavjud muammolarni bartaraf etish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Matt Marx, David H. Hsu (2022). *Revisiting the Entrepreneurial Commercialization of Academic Science: Evidence from "Twin" Discoveries*. *Management Science*, 68(2):1330-1352. <https://doi.org/10.1287/mnsc.2021.3966>.
2. Bracio, Klaudia; Szarucki, Marek (2019). *Commercialization of Innovations through Internationalization: A Systematic Literature Review*. *Verslas: Teorija ir Praktika / Business: Theory and Practice*, Vol. 20, pp. 417-431. <https://doi.org/10.3846/btp.2019.39>.
3. Попова И.В. *Интеллектуальная собственность*. Т.1: Авторское право и смежные права. — Минск: Амалфея, 1997. 560 с.
4. Губайдуллина Г.Г. *Рыночные механизмы функционирования научного сектора в России* // Промышленность: экономика, управление, технологии. 2012.

№ 5 (44). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rynochnye-mehanizmy-funktsionirovaniya-nauchnogo-sektora-v-rossii>.

5. Байнев В.Ф. *Рынок или инновации?* // Наука и инновации. 2007. № 4. С. 51–56.

6. Цуканова О.А., Захарова Е.А. *Анализ ценообразующих факторов в сфере науки и техники* // Фундаментальные исследования. 2018. № 6. С. 235-239.

7. Далиев Х.Х. *Инновацион иқтисодиётни шакллантиришда илмий ишланмаларни тижоратлаштиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш* // Иқтисодиёт ва таълим. 2020. № 6, 104-109 б.

8. Адилова З.Д., Исмаилова С.У. *Фан ва таълимни тижоратлаштиришнинг замонавий тенденциялари ва хорижий тажриба* // ORIENSS. 2022. №Special Issue 23. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fan-va-talimni-tizhoratlashtirishning-zamonaviy-tendentsiyalari-va-horizhiy-tazhriba>.

9. Тангрикулов Г. (2019). *Инновацион фаолиятни солиқлар воситасида рағбатлантиришнинг хориж тажрибаси. Экономика и инновационные технологии,* (3), 292–301.
https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/10830.

10. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi rasmiy axborot sayti ma’lumotlari.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**